

TO'RTINCHI SINFDa MAKTAB REPERTUARINI O'RGATISH METODIKASI

Annotatsiya. Maqolada 4-sinfda musiqa o'qitishning asosiy vazifalari - o'quvchilarda musiqiy madaniyat, badiiy did va musiqani his qilish qobiliyatini shakllantirish, o'zbek xalq hamda mumtoz musiqa durdonalari orqali vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bayon etilgan. Shuningdek, musiqiy janrlar va uslublar haqidagi bilimlarni tizimlashtirish, musiqa haqida ijodiy fikrlash, musiqiy ifoda tilini tushunish, asarlarga hissiy munosabatda bo'lish qobiliyatini rivojlantirish, guruhda kuylash, intonatsiya va musiqiy-ritmik harakatlar ko'nikmalarini oshirish ishlari ham olib borish usullari ifodalangan. Jumladan, turli xil musiqa asboblari tasvirlari bilan kartotekalardan foydalanish yoki musiqa asarlari qanday yaratilganligi haqida video ko'rsatish, ko'rgazmali qurollar darsni yanada qiziqarli va esda qolarli qarajada bo'lishiga undovchi usullar ham bayon etilgan.

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ШКОЛЬНОГО РЕПЕРТУАРА В ЧЕТВЕРТОМ КЛАССЕ

Аннотация. В статье описываются основные задачи обучения музыке в 4 классе – формирование у учащихся музыкальной культуры, художественного вкуса и способности чувствовать музыку, а также воспитание в них духа патриотизма посредством шедевров узбекской народной и классической музыки. В нем также описываются методы систематизации знаний о музыкальных жанрах и стилях, развития творческого мышления о музыке, понимания языка музыкального выражения, развития способности эмоционально реагировать на произведения, а также совершенствования навыков группового пения, интонации и музыкально-ритмического движения. В частности, описываются такие методы, как использование карточек с изображениями различных музыкальных инструментов или демонстрация видеороликов о процессе создания музыкальных произведений, а также наглядные пособия, которые делают урок более интересным и запоминающимся.

METHODS OF TEACHING SCHOOL REPERTOIRE IN FOURTH GRADE

Abstract. This article describes the main objectives of music instruction in fourth grade: developing students' musical culture, artistic taste, and musical sensitivity, as well as instilling a spirit of patriotism through masterpieces of Uzbek folk and classical music. It also describes methods for systematizing knowledge about musical genres and styles, developing creative thinking about music, understanding the language of musical expression, developing the ability to respond emotionally to works, and improving skills in group singing, intonation, and musical-rhythmic movement. In particular, it describes methods such as using flashcards with pictures of various musical instruments or showing videos about the process of creating musical works, as well as visual aids that make the lesson more interesting and memorable.

Kirish. Zamonaviy talab va metodlar asosida umumkasbiy fanlar qatori "Musiqqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari" fanidan ham dastur, o'quv qo'llanmalar, darsliklar yaratilgan. Bu fan bo'lajak musiqa o'qituvchilarining musiqiy-nazariy bilimlarini, amaliy tajribalarini hayot bilan bog'lashga, musiqani idrok etish, tasavvur qilishga o'rgatadi. Ijodkorlik va ijrochilik mahoratini egallashda, musiqiy va kasbiy madaniyatini shakllantirishga ko'mak beradi.

Maktabda musiqa o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda musiqa madaniyatini shakllantirish, ularni zamon talabiga javob bera oladigan barkamol inson qilib voyaga yetkazishdir. IV sinflarda o'quvchilarni ovoz apparatlari shakllangan bo'lib, ikki ovozli qo'shiqlarni kuylash, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar. Shunga ko'ra oddiydan murakkabga prinsipi asosida musiqaviy asarlar tanlanadi.

Asosiy qisam. To'rtinchi sinfda (boshlang'ich maktabning yakuniy bosqichi) musiqa ta'limi musiqiy tajribani tizimlashtirish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish, musiqa va hayot, adabiyot va san'at o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur tushunishga qaratilgan. Musiqa madaniyati asoslarini ma'naviy madaniyatning bir qismi sifatida rivojlantirish asosiy maqsaddir.

4-sinfda musiqa o'qitishning asosiy vazifalari o'quvchilarda musiqiy madaniyat, badiiy did va musiqani his qilish qobiliyatini shakllantirish, o'zbek xalq hamda mumtoz musiqa durdonalari orqali vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdir. Mazmunan darslar xor bo'lib kuylash, musiqa tinglash, musiqiy savodxonlik va ijodiy faoliyat turlarini qamrab oladi. Musiqa darslari jarayonida xalq va mumtoz musiqa san'atini o'rganish orqali musiqa san'atiga mehr-muhabbatni kuchaytirish, estetik did, vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirish ishlari amalga oshirib boriladi. Shuningdek, musiqiy janrlar va uslublar haqidagi bilimlarni tizimlashtirish, musiqa haqida ijodiy fikrlash, musiqiy ifoda tilini tushunish, asarlarga hissiy munosabatda bo'lish qobiliyatini rivojlantirish, guruhda kuylash, intonatsiya va musiqiy-ritmik harakatlar ko'nikmalarini oshirish ishlari ham olib boriladi.

4-sinfda musiqa o'qitishning asosiy vazifalaridan biri - o'quvchilarni musiqiy-estetik tarbiyalash kiradi. Jumladan, o'quvchilarda musiqaga nisbatan qiziqish va muhabbat uyg'otish, musiqa orqali his-tuyg'ularini tarbiyalashdir. Milliy qadriyatlar vositasida tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish ham asosiy vazifalardan hisoblanadi. Bunda o'zbek xalq kuy va qo'shiqlari, maqom san'ati hamda kompozitorlar ijodi bilan tanishtirish orqali milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish nazarda tutilishi kerak. Musiqiy savodxonlikka tegishli materiallar ustida ishlash, jumladan, musiqa nazariyasi asoslari (tovushqator, nota cho'zimlari, o'lchamlar) bilan tanishtirish, o'quvchilar ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, ayniqsa musiqa tinglash va kuylash orqali ijodiy tafakkur, ritmik sezgi va musiqiy xotirani rivojlantirish muhim vazifalar tarkibiga kiradi.

4-sinf musiqa darsining mazmunida xor bo'lib kuylash ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda vokal-xor malakalarini shakllantirish, nafasni to'g'ri boshqarish, diksiya va sof kuylash ustida ishlanadi. Shu xildagi ishlarni amalga oshirib borish repertuarida milliy va bolalar qo'shiqlari asosiy o'rin tutishi kerak. Musiqa tinglash vositasida musiqa asarini tahlil qilish, janrlarni (qo'shiq, raqs, marsh) ajratish, kompozitorlar ijodi bilan tanishish ham dars mazmunidan o'rin olishi kerak. Musiqiy ifodani (ohang, ritm, tembr, garmoniya) tahlil qilish va mazmunini tushunish, improvizatsiya, musiqiy tasvirlarni modelashtirish, teatrlashtirilgan o'yinlarda ishtirok etish kabi ijodiy faoliyat ham darslar mazmunidan o'rin egallashi kerak. Shuningdek, Nota yozuvlari bilan tanishish, ritmik sxemalarni chalish va kuylash orqali musiqiy savodxonlik ishlari ham amalga oshiriladi. Darslar jarayonida musiqiy-ritmik harakatlar bajariladi. Bunda musiqa xarakteriga mos ravishda harakatlanish, o'yinlar ijro etish rejada bo'lishi kerak. Umuman olganda, 4-sinf o'quvchilari psixologik jihatdan ancha shakllangan bo'lib, ular hajmiy jihatdan kattaroq va murakkabroq musiqiy asarlarni eshitish va tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. O'qituvchi asosiy usul sifatida "Musiqiy umumlashtirish" - o'rganilgan asarlarni o'quvchilarning shaxsiy hayotiy tajribalari bilan bog'lash kerak.

Har bir musiqa darsini bolalarni qiziqitirish va ularning faol ishtirokini ta'minlash uchun ehtiyotkorlik bilan rejalashtirish kerak. Odatda, dars tashkiliy mashg'ulot bilan boshlanadi, taxminan besh daqiqa davom etadi. Bu bosqichda o'qituvchi bolalarni kutib oladi, ularning darsga tayyorligini tekshiradi, ijobiy muhit yaratadi. Masalan, dars mavzusiga oid qisqa o'yin yoki topishmoq bilan boshlash mumkin.

Darsning asosiy qismi taxminan 30-35 daqiqa davom etadi va nazariya, amaliyot va ijodiy vazifalarni o'z ichiga oladi. Yangi materialni tushuntirishni amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish muhim. Misol uchun, bastakor N.Norxo'jayev haqidagi hikoyadan so'ng, o'quvchilarni uning kompozitsiyasini tinglashga va u uyg'otadigan his-tuyg'ularni muhokama

qilishga taklif qilish mumkin. Ritm yoki qo'shiqni rivojlantirish uchun o'yinlarni ham qo'shish mumkin.

Darsning yakuniy bosqichi taxminan 5-10 daqiqa davom etadi va darsni umumlashtirishga bag'ishlanadi. Bu bolalar o'rgangan narsalarni muhokama qilishni yoki qisqa topshiriqni o'z ichiga olishi mumkin. Masalan, o'quvchilardan ular eshitgan musiqa mos keladigan rasmini chizishni so'rashi mumkin. Ushbu yondashuv materialni mustahkamlashga yordam beradi va bolalarda ijobiy his-tuyg'ular qoldiradi.

Dars davomidagi fikr-mulohazalar o'qituvchiga bolalarning materialni qanchalik yaxshi o'rganayotganini tushunishga yordam beradi. Savollar berish, bolalarni o'z fikrlarini bildirishga undash va ularning reaksiyalarini kuzatish muhimdir. Agar bolalar qiziqishlarini yo'qotayotganday tuyulsa, dars tuzilmasi, uslubi hamda tartibini tezda moslashtirish kerak. O'quvchilarga moslashuvchanlik va e'tiborlilik muvaffaqiyatli darsning kalitidir.

To'rtinchi sinf o'quvchilari uchun musiqa o'quv dasturi bolalarga musiqa san'atining xilma-xilligini o'rganishga yordam beradigan keng mavzularni o'z ichiga oladi. Eng muhim bo'limlardan biri xalq musiqasini o'rganishdir. Bolalar turli madaniyatlarning qo'shiqlari, raqslari va marosim kuylarini farqlashni o'rganadilar. Misol uchun, yil fasllari bilan bo'g'liq bahorda kuylanadigan qo'shiqlar "Boychechak", "Oftob chiqdi olamga", "Chittigul", "Qaldirg'och", shuningdek "Oh, Layli", "Xo'p hayda", "Urchuq" kabi o'zbek xalq qo'shiqlarini o'rgatish yoki bolalarni milliy raqslari bilan tanishtirish mumkin.

Faol ta'lim usullari musiqa darslarida muvaffaqiyat kalitidir. O'yinlar, loyihalar va guruh ishlari bolalarga materialni yaxshiroq o'zlashtirishga va muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, bolalarni eshitgan musiqa asosida mini-spektakl yaratishga undash yoki eng yaxshi qo'shiq ijrosi uchun tanlov tashkil qilish mumkin. Bunday tadbirlar ijodkorlikni va jamoada ishlashni rag'batlantiradi.

Ko'rgazmali qurollar o'quv materialini o'rganishda muhim o'rin tutadi. Plakatlar, mavzuga oid ma'lumotlar yozilgan kartotekalar va videolar bolalarga materialni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Misol uchun, turli xil musiqa asboblari tasvirlari bilan kartotekalardan foydalanish yoki musiqa asarlari qanday yaratilganligi haqida video ko'rsatish mumkin. Ko'rgazmali qurollar darsni yanada qiziqarli va esda qolarli qiladi.

Eshitish idrokini rivojlantirish musiqa darsining asosiy maqsadlaridan biridir. Bunga musiqa asarining ayrim qismlarini tinglash va ularning xususiyatlarini muhokama qilish orqali erishish mumkin. Masalan, bolalardan orkestrda eshitgan asboblarni aniqlashlarini yoki kuyni tinglagandan keyin his-tuyg'ularini tasvirlashni so'rash mumkin. Bunday mashqlar musiqiy eshitish qobiliyatni rivojlantirishga yordam beradi.

Musiqa darslarida jismoniy faollik ham muhim ahamiyatga ega. Ritmik mashqlar, qarsak chalish va raqs harakatlari bolalarda ritm hissini rivojlantirishga va muvofiqlashtirishni yaxshilashga yordam beradi. Misol uchun, har bir bola o'z elementini qo'shadigan "ritm zanjiri" ni tashkil qilish mumkin yoki barchani quvnoq ohangda birga raqsga tushishga taklif qilish mumkin. Bu darsni yanada dinamik samaradorligini o'stirishga undaydi va mazmunan qiziqarli qiladi.

Har bir o'quvchiga individual yondashuv o'qituvchiga ularning shaxsiy ehtiyojlari va manfaatlarini hisobga olishga yordam beradi. Misol uchun, agar o'quvchilar qo'shiq aytishga qiziqsa, ularga kontsertda solist sifatida chiqish imkoniyatini taklif qilish mumkin. Agar kimdir cholg'u musiqani afzal ko'rsa, uni musiqa maktabiga borishni tavsiya qilish mumkin. Bunday yondashuv bolalarni rag'batlantiradi va ularning imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishga yordam beradi.

Amaliy dars vazifalariga alohida e'tibor berish kerak. Musiqani eshitish(slux)ni mashq qilish mashqlari har qanday musiqa darsining asosidir. Misol uchun, bolalardan musiqani birinchi notalardan tanib olishni yoki yozuvda eshitilayotgan cholg'u asbobini aniqlashni so'rash mumkin. Bu vazifalar ularning e'tiborini tarbiyalaydi va tovushlarni yaxshiroq ajratishga yordam beradi.

Qo'shiq aytish darsning muhim elementi bo'lib, to'g'ri tayyorgarlikni talab qiladi. O'qituvchi bolalarga qanday qilib to'g'ri nafas olish va ovozi to'g'ri chiqarish kerakligini

tushuntirishi kerak. Boshlash uchun oddiy qo'shiqlarni tanlash mumkin, masalan, o'zbek xalq qo'shiqlari "Yomg'ir yog'aloq" yoki "Oq terakmi, ko'k terak". Asta-sekin, ikki qismli qo'shiqni o'z ichiga olgan murakkab qismlarga o'tish mumkin.

Ritmik o'yinlar ham bolalarda musiqa tuyg'usini rivojlantirishga yordam beradi. Misol uchun, bolalarni ohangda qo'llarini urish yoki raqs harakatlarini bajarishga undash mumkin. "Ritm estafetasi" bolalarni jamoaviy ishlashga o'rgatish va ritm tuyg'usini rivojlantirishning ajoyib usuli hisoblanadi.

Mini-kompozitsiyalarni yaratish - bu bolalarga o'zini namoyon qilish imkonini beradigan ijodiy faoliyat. Masalan, ulardan o'z ohangini yoki matnini o'ylab topishni so'rash mumkin. Bu mashg'ulotlar ularning tasavvurini rivojlantiradi va bolalarga musiqiy kompozitsiyalar qanday yaratilganligini tushunishga yordam beradi.

Rasm chizma, musiqa hikoyalari yoki taqdimotlar kabi ijodiy faoliyat bolalarga o'z fikrlari va his-tuyg'ularini ifoda etishga yordam beradi. Misol uchun, musiqa asarini tinglagandan so'ng, bolalardan musiqaga mos keladigan rasmni chizishni so'rash mumkin. Bunday tadbirlar darsni yanada rang-barang va qiziqarli qiladi.

4-sinf musiqa darsida texnologiyadan foydalanish:

Zamonaviy texnologiyalar musiqa darsini sezilarli darajada boyitishi mumkin. GarageBand yoki MuseScore kabi dasturlar va ilovalar bolalarga o'zlarining musiqiy kompozitsiyalarini yaratishga imkon beradi. Quloq eshitishi(slurx)ni o'rgatuvchi moslamalari ko'nikmalarni tezroq va samaraliroq rivojlantirishga yordam beradi

Konsert videolari, asarlarning audioyozuvlari, filarmoniya zallari bo'ylab virtual sayohatlar kabi onlayn resurslar darslarni yanada ko'rgazmali va qiziqarli qiladi. Masalan, bolalarga orkestr ijrosining yozuvini yoki taniqli musiqachi bilan suhbatni ko'rsatish mumkin. Bu bolalarga musiqa olami qanday ishlashini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Musiqa darslarini o'tishda interfaol doskadan foydalanish ahamiyatlidir. Interfaol doska darsni tashkil qilish uchun ajoyib vositadir. U videolar, slaydlar va boshqa materiallarni ko'rsatish uchun ishlatilishi mumkin. Misol uchun, notalarni ko'rsatish yoki interaktiv o'yinlarni o'ynash uchun doskadan foydalanish mumkin. Bu darsni yanada dinamik darajasini o'stiradi va qiziqarli qiladi.

Kompyuterda musiqa loyihalarini yaratish bolalar uchun o'zini namoyon qilishning ajoyib usuli hisoblanadi. Masalan, siz ularni o'z kompozitsiyasini yaratishga yoki sevimli bastakor haqida raqamli audio yozishga undashingiz mumkin. Ushbu loyihalar bolalarning texnik ko'nikmalarini va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Xavfsizlik va texnologiyadan foydalanish cheklovlari bolalar bilan ishlashning muhim jihati hisoblanadi. O'qituvchilar bolalarning texnologiyadan to'g'ri foydalanishini va keraksiz narsalar bilan chalg'itmasligini ta'minlashi kerak. Masalan, ular internetdan foydalanish chegaralarini belgilashlari yoki ish uchun materiallarni oldindan tayyorlashlari mumkin.

Sinfdan tashqari tadbirlarni tashkil etish:

Maktabdagi konsert va tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish o'qituvchi faoliyatining muhim qismidir. Bolalar turli tadbirlarda ishtirok etishlari, qo'shiqlar kuylashlari yoki musiqa asboblarini chalishlari mumkin. Ushbu tadbirlar bolalarga o'zlarini ifoda etishlariga va qimmatli ishlash tajribasiga ega bo'lishga yordam beradi.

Musiqa tanlovlari va festivallarda ishtirok etish bolalar uchun o'z iste'dodini namoyon etish uchun ajoyib imkoniyatdir. Misol uchun, shahar festivaliga sayohatni tashkil qilish yoki bolalarni ijro tanlovida ishtirok etishga taklif qilish mumkin. Bu esa ularni o'z mahoratini yanada oshirishga undaydi.

"Mening sevimli musiqam" loyihasi bolalar uchun o'z qiziqishlarini baham ko'rish uchun ajoyib imkoniyatdir. Masalan, ularni sevimli bastakor yoki ijrochi haqida taqdimot tayyorlashga undash mumkin. Ushbu loyihalar bolalarga musiqani yaxshiroq tushunishga va notiqlik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Musiqiy uy vazifasi: uni qanday qiziqarli va foydali qilish kerak? Misol uchun, bolalardan o'zlarining sevimli bastakorlarini tadqiq qilishni yoki qo'shiqning o'z versiyasini yozishni so'rash

mumkin. Bunday topshiriqlar bolalarga materialni yaxshiroq tushunishga va mustaqillikni rivojlantirishga yordam beradi. Musiqiy tajribasi bo'lmagan bolalar bilan ishlash kerak. Masalan, ularga oddiy vazifalarni taklif qilish yoki qo'shimcha darslar tashkil qilish mumkin. Ushbu yondashuv bolalarga materialni asta-sekin o'zlashtirishga yordam beradi.

Umuman olganda, to'rtinchi sinf o'quvchilari o'zlarining psixologik-fiziologik xarakteriga ko'ra hayotiy tajribaga boy, fanlarga qiziquvchan bo'ladilar. Diqqat-e'tibori turg'unlashgan bo'ladi. Jiddiy bo'lgan masalalar ustida fikrlash, hajm jihatdan kattaroq bo'lgan musiqa asarlarini eshitishga qodir bo'ladilar, izlanish, mushohada qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bu xususiyatlarni barchasini o'qituvchi nihoyatda o'ylab, oqilona ish tutishi lozim. Har bir darsdan unumli foydalanishi lozim. Bundan maqsad bolalarni tezroq dasturdagi musiqa asarlariga, dars uslubiga, musiqa san'atiga qiziqishidan iboratdir.

"Bobom ulug' yoshida"

Egam Rahimov she'ri

G'ofur Qodirov musiqasi

Shoshilmay

mp

Bo- bom u- lug' yo- shi- da (yo- shi- da), Kat- ta ish- lar

bo- shi- da (bo- shi- da), Sho- gird-la- ri ba- ho- dir,


Ter to'- ka- miz qo- shi- da, ter to'-ka- miz qo- shi- da,

ter to'- ka- miz qo- shi- da.

1. Qaytarish uchun 2. Tamomlash uchun

Mazkur qo'shiq shoshmay, oxista sur'atda asar ijro etiladi. 2/4 o'lchovida, "Mi" minor tonligida yozilgan. Bu qo'shiqda shoir bolalar tilidan so'zlab boboning ulug' yoshda katta ishlar boshida turishi, uning shogirdlari kuchga to'lgan bahodir kishilar sifatida ter to'kib ishlashini bayon etadi. Boboning asla pahlavonga qiyoslab qir, davonlardan kuchli sher kabi qiynalmasdan oshishi, go'zal bog'larni bunyod etishi she'rning kulminatsion g'oyasini tashkil etadi. Bobolardan o'rnak olish, ularni hurmat qilish va sevishga, o'gitlaridan baxramand bo'lishga undalishi ham she'r mazmunida aks ettirilgan.

Kompozitor G'. Qodirov "Bobom ulug' yoshida" qo'shig'ini ikki ovozda kuylash shaklida shakllantirgan. Bu jarayon musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning musiqiy eshitish qobiliyati, garmonik tushunchasi va vokal malakalarini rivojlantiruvchi murakkab, ammo samarali jarayondir. Qo'shiqdagi ikki ovozli tovush yangrashining yaxshi soz bilan, baravar, uyg'un va ravon bo'lishiga erishish kerak.



Bunda o'qituvchi to'g'ri nafas olishi, yaxshi tovush hosil qilish va yaxshi artikulyasiya bo'lishini kuzatib boradi. Oldin ikki ovozli matnning har bir ovoz bilan alohida – alohida o'rganib chiqish zarur. Ayrim ovozlar mukammal o'rganilgandan keyin ularni bir – biriga qo'shish mumkin. Shu bilan birga, o'qituvchi o'zi cholg'uda chalib yoki kuylab berib, intonasiyada bo'shashgan ovozlar to'lasiga yordamlashadi. Dastavval ikkinchi ovozni kuylashni eslab qolish qiyin bo'lganligi sababli, o'qituvchi birinchi ovozga og'izni yumib ikkinchi ovozga esa nota nomlarini aytib kuylashni taklif etishi mumkin. O'quvchilar o'z partiyalarining ovoz yo'nalishini yaqqol tasavvur etishlari uchun ikki ovozli qismlarni nota bilan kuylash tavsiya qilinadi.

Oldin ikki ovozli jumlar o'rtacha tempda, keyin sekin tempda kuylab (3-4 mashg'ulotdan so'ng), ustalik bilan nafasni tejab sarflash kerak. Jumlar kuylaganda o'quvchilar uning ritmik asosiga qat'iy rioya qilib, qo'l harakati bilan takti hisoblashsa yaxshi bo'ladi.

"Bobom ulug' yoshida" qo'shig'i singari Ikki ovozli qo'shiqlar ustida olib boriladigan ishning dastlabki jarayonlaridanoq jo'rsiz ijro etish uchun mo'ljallangan ikki ovozli qo'shiqlarni o'rgana boshlash kerak. Masalan, "Kulcha non" (P.Mo'min sh., I.Hamroyev m.) qo'shig'ini kuylashda o'quvchilarni ikki ovozga ajratish, ya'ni ovoz yuqori pardalarga ko'tarilmaydigan o'quvchilar jim eshitishlari, qolganlar kuylashi talab qilinadi. Shuningdek, ovozga ajratish o'quvchilarga qo'shiq o'rgatishda, ularni guruhlarga bo'lishda ham qo'l keladi.

Har bir ovoz guruhining alohida kuylanishi o'quvchilarni ko'p ovozlikka tayyorlab boradi va ularda mustaqillik hisini tarbiyalaydi.

"Kulcha non"

P.Mo'min sh.,

I.Hamroyev m.



Qo'shiqdagi ikki ovozlilik ustida olib boriladigan ishning turli usullari mavjuddir. Bulardan biri – xor partiyalarini notalar nomini aytib kuylash (solfedjio qilish) usulidir. Mashqlarda bo'lgani kabi, ikki ovozli parchalarni notalar nomini aytib kuylash ohang tovushlarining balandlik holatini aniqlashtiradi. Bolalar notalar nomini esga olishar ekan, ohangni ham beixtiyor esga olishadi. Ikki ovozlikni mustahkamlash jarayonida qo'shiqni bir ovozli joylari sinf jamoasi butun xor bilan ijro etiladi, ikki ovozli joylari esa – dastlab kelishib olinmay turib o'qituvchining dirijyorlik ishorasiga qarab jo'rsiz ijro etiladi.

Qo'shiqlarning kuy va musiqiy matnini oddiy taxlil qila bilishga o'rgatish orqali o'quvchilarga musiqaning oddiy tuzilishi haqidagi tushunchalar singdiriladi va ular bora – bora oddiy ohangni nota bilan kuylab bera olish darajasiga erishadilar.

O'quvchilar ikki ovozli qo'shiq jumllarini kuylashda ularda charchoq holati paydo bo'lishi tez-tez ko'zga tashlanib turadi. Bunday holatda o'quvchilarning charchoqlarini chiqarish, diqqatini jamlash va harakat faolligini oshirish maqsadida dars o'rtasida "fizkult pauza" (jismoniy tarbiya daqiqasi)ni o'tkazish tavsiya etiladi. Musiqa darslaridagi fizkult pauzalar oddiy gimnastikadan farqli o'laroq, asosan ritmga asoslangaligi bois, chapak chalish va oyoq bilan bir tekisda qadam tashlash, takt hissalarini sanash va kichik dirijyorlik elementlarini bajarish maqsadga muvofiq.

Xulosa. IV sinf o'quvchilariga maktab repertuarini o'rgatish, jumladan qo'shiq o'rgatish jarayonida o'rganiladigan qo'shiqqa emotsional munosabatni rivojlantirish, tasavvurni, musiqiy eshitish va xotirani o'stirish, musiqaning ifoda vositalarining ahamiyatini tushunish, jarangli, kuychan, yengil tovushlarda kuylash, o'zini va o'rtoqlarini tinglay olish, jo'rsoz bilan hamda jo'rsozsiz kuylash, ikki-uch ovozli kuylash orqali garmonik eshitish qobiliyatini shakllantirish kabi vazifalar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. O'qituvchi kuylash uchun qo'shiq tanlar ekan, avvalambor asarning badiiy qiymati, mazmuni, tarbiyaviy ahamiyati, obrazlar doyrasini sinchiklab tahlil qilib chiqadi. Olingan natijaga qarab qo'shiqni o'rgatish metodlarini tanlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yusupova, Nafisa Yusupovna. Musiqa savodi, metodikasi va ritmika: o'quv qo'llanma. Ikkinchi nashr. – Toshkent: Musiqa, 2017. 180 b.
2. Mustafoyev B.I. Musiqao'qitish metodikasi: o'quv qo'llanma. -Buxoro: OOO "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2021. – b
3. Yuldashev A. A. Maktab repertuari. Oliy ta'lim muassasalari 5111100 - Musiqa ta'limi ta'lim yo'nalishi bakalavriat 2-bosqich talabalari uchun o'quv qo'llanma. Farg'ona— 2020. - 208 b.
4. Sharipova G., Xodjayeva Z. Musiqa o'qitish metodikasi /darslik/ - Toshkent "NIF MSH" - 2020, 136 b